



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Eshmurod Murtazayev¹

¹Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining Umumtexnika fanlari kafedrasи dotsenti (murtazaev_70@mail.ru)

**PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI O'QUVCHILARDA QURUVCHI KASBIGA
OID KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK TA'MINOTINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ДИДАКТИВНОЙ ПОДДЕРЖКИ СТУДЕНТОВ
ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ
СТРОИТЕЛЬНЫХ КОМПЕТЕНТОВ**

**IMPROVEMENT OF DIDACTIVE SUPPORT OF STUDENTS OF PROFESSIONAL
EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN THE FORMATION OF CONSTRUCTION
COMPETENTS**

Annotatsiya: Mazkur maqola yangi professional ta'lismuassasalarida ta'litmazmuni, soni va sifati, ta'limdasturlari, texnologiyalarining islohqilinishi o'qitishni sifat va samaradorligini belgilovchi omillar, ularni takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan.

Tayanch so'zlar; ilm, ilmiy, texnik, kashfiyat, taraqqiyot, ta'limgasb, qobiliyat, fan, malaka, motivatsion, faoliyatli va kreativlik, hodisa, Kaskad, Zinama-zina, Kouching qonuniyat.

Аннотация: Данная статья посвящена содержанию, количеству и качеству образования в новых учреждениях профессионального образования, реформированию образовательных программ, технологий, факторам, определяющим качество и эффективность обучения, их совершенствованию.

Ключевые слова: наука, научный, технический, открытие, развитие, образование, профессия, способность, наука, умение, мотивация, активность и творчество, событие, каскад, лестница, коучинговое право.

Annotation: This article is devoted to the content, quantity and quality of education in new vocational education institutions, the reform of educational programs, technologies, factors that determine the quality and effectiveness of training, and their improvement.

Keywords: science, scientific, technical, discovery, development, education, profession, ability, science, skill, motivation, activity and creativity, event, cascade, ladder, coaching law.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi “Mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlarni kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 394-sonli qarorida “Kasb-hunar kollejlarida o‘rta bo‘g‘in mutaxassislar va ishchi kasblar bo‘yicha kadrlar kasb-hunar kollejlaridagi nazariy mashg‘ulotlarni bevosita yirik korxonalar va klasterlarning maxsus tashkil etilgan o‘quv-ishlab chiqarish xonalarida ishlab chiqarishga o‘qitish bilan integratsiyalashtirish prinsipi asosida tayyorlanadi”, deb ta’kidlangan. Prezidentimizning 2019 yil 6 sentabrda “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi [1].

Prezidentimizning “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida “Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalari shiddat bilan rivojlanayotgani islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi yetakchilari qatoriga kirish yo‘lida tez va sifatli ilgarilashini ta’minlaydigan zamonaviy innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etadi” deb alohida ta’kidlangan. Prezidentimiz tomonidan sohada tub islohotlarni amalga oshirish va zamonaviy professional ta’lim tizimini barpo etishning maqsad va ustuvor vazifalari, bir so‘z bilan aytganda, sohaning yangi missiyasi belgilab berildi. Ushbu missiya mohiyati yangi sifat va formatda inson resurlarini rivojlantirish, yoshlarda ichki va tashqi mehnat bozori talab qilayotgan amaliy kvalifikatsiyalarni shakllantirish, ularning Vatanga muhabbatini, xalqiga sadoqatini yuksaltirishdan iboratdir. **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Professional ta’lim jarayoniga so‘nggi yillarda milliy iqtisodiyotni diversifikasiya qilish natijasida O‘zbekistonda ishga tushirilgan innovatsion ishlab chiqarish quvvatlari, sanoat, ishlab chiqarish, agrar sohalaridagi yirik korxonalar, innovatsion biznes va tadbirkorlik sub’yeqtiali, AKT, turizm va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida zamonaviy texnologik liniyalarni boshqarishda katta tajribaga ega bo‘lgan mutaxassislar, ish yurituvchilar, injener-texnologlar, agronomlar va masterlar jalb etishni taqoza etadi [2].

2020/2021 o‘quv yilidan boshlab, kollejlar va texnikumlar mehnat bozorining xususiyatlari, ish beruvchilarning texnologik jarayonlarini hisobga olgan holda ta’lim

jarayonida foydalaniladigan fan (modul) va amaliyot dasturlarini ish beruvchilar bilan birga mustaqil ishlab chiqadi hamda amaliyotga joriy etadi. Bu degani, endi o‘rtalagi bo‘g‘in mutaxassislari oldindan aniq ish o‘rniga ish beruvchi qo‘ygan malaka talablari asosida tayyorlanadi va kelgusida o‘sha ish o‘rniga borib joylashadi.

Shuningdek, O‘zbekistonda ilk marta joriy o‘quv yilidan boshlab, professional ta’lim muassasalarida tadbirkorlikka yo‘naltirilgan o‘quv rejalarini tajriba sinov-tariqasida joriy etiladi. “Innovatsiya bo‘lmash ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish bo‘lmaydi”, degan so‘zlaridan kelib chiqib, Kasb-hunar ta’limi tizimini innovatsion rivojlantirish, pedagog kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash institutida innovatsion muhit, yangi makon yaratildi [3].

Professional ta’limning sifat va samaradorligini ta’minlash maqsadida o‘quvchilar egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini bevosita kundalik hayotida qo‘llashga o‘rgatadigan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim dasturlari yaratildi va yangi o‘quv yilidan tadbiq etish boshlanadi. Yana bir muhim jihat, bundan buyon professional ta’lim muassasalari va kasb-hunarga o‘qitish markazlari imkoniyatlaridan kelib chiqib, o‘quvchilarni jalb qilgan holda issiqxona, chorvachilik, asalarichilik, baliqchilik, quyonchilik, parrandachilik, bog‘dorchilik, limonchilik, sabzavot yetishtirish, ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish sohalarida tadbirkorlik va kichik biznes tarmoqlari tashkil etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). “Bino va ishootlar konstruksiyasi”, kabi maxsus fanlar mashg‘ulotlarida sxema, diagramma, modellar, maketlar, axborot texnikasi va texnologiyalaridan foydalanish asosida amalga oshirilishi kasb-hunar kollej o‘quvchilarning quruvchi kasbiga oid kompetensiyalariga tegishli bo‘lgan o‘quv ma’lumotining hajmini kengaytirishga, uning mazmunini to‘ldirishga olib keladi. Bunday sharoitda o‘quvchilar ko‘proq o‘quv materialini mustaqil, ijodiy o‘zlashtirishlariga to‘g‘ri keladi. Chunki maxsus fanlar birinchidan, o‘quvchilarning quruvchi kasbiy kompetensiyalariga oid ma’lumotlarni o‘zlashtirishini ta’minlashni yo‘lga qo‘ysa, ikkinchidan, ularning o‘qish-o‘rganishlari uchun yordam beradi [4].


Bugungi kunda Respublikamizning har bir hududida uy-joylar qurish ijtimoiy jihatdan zaruratga aylandi. Shu jihatdan ham kasb-hunar kollejlarida bo‘lajak quruvchilarni tayyorlashni amalga oshirish, Davlat ta’lim standart talablarining bajarilishini nazorat qilishning tizimini yaratish, ularni yangilab borish, o‘quv adabiyotlari mazmunini modernizatsiyalash ishlarini amalga oshiruvchi uslubiy kengash faoliyatini tashkil etish, maxsus fanlarni o‘qitish mazmunini muntazam ravishda optimallashtirish maqsadida quruvchi texnologiyalari markazi faoliyatini tashkil etish kabilar maxsus fanlarni o‘qitish jarayonining samaradorligini yanada oshiradi [5].

Shu maqsada maxsus fanlarini o‘qitishda o‘quvchilarning quruvchi kasbiga oid kompetensiyalarni rivojlantirish modelining tarkibiy komponentlari (ijtimoiy buyurtma, maqsad, tashkiliy, texnologik va natijaviy)ni aniqladi. Quruvchi mutaxassislarning qurilish

chizmachiligi, binolar va ishootlar konstruksiyasi, koshinkorlik, mozaika, marmar yuzalarni qoplash va jilo berish ishlari kabilar axborot texnologiyalari yordamida ajoyib mo‘jizalar yaratilayotgani sir bo‘lmay qoldi. Shu jihatdan ham maxsus fanlarni o‘qitishda axborot texnologiyalari ta’lim vositasi sifatida bo‘lajak mutaxassislarning bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, amaliy dasturlar bilan ishslash, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini aniqlash, ta’lim natijalarini qayta ishslash, o‘qitishda optimal yo‘lni tanlab olish, to‘plash, uzatish, saqlash va qayta ishslash imkoniyatlarini amalga oshiradi [5].

Bugungi kunda pedagog kadrlardan nafaqat o‘z sohasi bo‘yicha, balki zamonaviy axborot texnologiyalaridan ham ma’lum bilimlarni chuqur egallashni va ularni yoshlarga, ayniqsa, o‘quvchilarga o‘rgatishni talab qiladi. Hozirgi kunning talabidan kelib chiqadigan bo‘lsak, muhandislik grafikasi o‘qituvchilari kamida to‘rtta zamonaviy grafik dastur Photoshop, Corel Draw, 3D MAX va AvtoCAD dasturlaridan dastlabki ma’lumotlarga ega bo‘lishlari va ulardan foydalanib chizma primitiv-elementlarini kompyuterda loyihalashni bilishlari lozim. Shuningdek, Flesh dasturini ham bilishlari zarur. Chunki, har qanday zamonaviy elektron o‘quv qo‘llanmalarni ishlab chiqishda grafik imkoniyatlarni yaratish bu dasturlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

AvtoCAD imkoniyatlari yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek juda keng. Shunga ko‘ra u ko‘p soxalarda xususan arxitektura sohasida ham keng miqyosida qo‘llaniladi. Endi dars jarayonida AvtoCAD imkoniyatlarini uy-joy loyihalash misolida ko‘rib chiqamiz. Eng avval AvtoCAD dasturini ishga tushiramiz (1-rasm).



1-rasm. Uy-joyni AvtoCADda loyihalash

Ma’lumki, fan-texnikaning taraqqiyoti axborotlarning keskin ko‘payishiga olib keldi. Bu axborotlar o‘z vaqtida qabul qilinib o‘zlashtirilmasa, ertaga ular eskirib qolishi mumkin. Buning uchun axborot texnologiyalaridan biri hisoblangan internetdan

foydanish yaxshi imkoniyatlar tug‘diradi. Hozirgi kunda bunday mahalliy-lokal tarmoq internet va xalqaro-global tarmoq (internet) dan maxsus fanlarini o‘qitishda, o‘quv ishlab chiqarish jarayonlarida keng foydalanilmoqda va yangi-yangi ma’lumotlar, axborotlar olinmoqda. Chunonchi, internet texnologiyalari dunyoning istalgan burchagidan kompyuter vositasi orqali axborot almashish xizmatlarini provayderlar degan turli xabarchilar amalga oshirib beradi.

Internetdagи http: manbalarning www-saytlaridan kerakli axborotlarni izlash va ulardan foydanish ta’limga oid turli yangiliklar, ma’lumotlar, axborotlar, hatto adabiyotlar va ma’ruza matnlarini ham olish mumkin. Axborot texnologiyalari ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashlarini yo‘lga qo‘yish va boshqarishni amalga oshirish hamda guruh yoki yakka tartibdagi mashg‘ulotlarni tashkil etish ishlarini ta’minlaydi. Demak, ta’lim jarayonida axborot texnologiyalardan foydalanish maxsus fanlarni o‘qitishning asosiy negizini tashkil etadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Bugun butun dunyoda XXI asr kompetensiyalari sifatida talqin etilayotgan “yumshoq” (soft) kompetensiyalarni shakllantirishga alohida urg‘u beriladi. Bu borada bir qator nufuzli xorijiy tadqiqot markazlari, jumladan, Butunjahon iqtisodiyot forumi tomonidan taqdim etilgan 2020 yil uchun eng muhim 10 ta kompetensiya, Yevropa uchun ustuvor tayanch kompetensiyalar, Yevropa standartlari doirasidagi Dublin deskriptorlari, Rossiya uchun ustuvor tayanch kompetensiyalar chuqur tahlil qilingan holda milliy mentalitetimizga xos va mos kompetensiyaviy yondashuv joriy etiladi. Yangi tizim uchun yaratilayotgan o‘quv adabiyotlari, kitob va darsliklar, elektron ta’lim resurslari, innovatsion, raqamlashtirilgan ta’lim texnologiyalari, ochiq elektron resurslar tarmog‘i, o‘quv adabiyotlarini xorijiy davlatlardan olib kelish, qayta ishslash, chop etish va tarqatish, kelajak kutubxonalarini, kelajak auditoriyalarini yaratish jarayonlarida shu kabi muhim vazifalar doimiy diqqat markazimizda bo‘ladi.

-hududlar va sohalar kesimida iqtisodiy taraqqiyotga munosib hissa qo‘sha oladigan o‘rta bo‘g‘in kadrlarini tayyorlash;

-yoshlarni malakali mehnat orqali o‘z hayot farovonligini ta’minlashga o‘rgatish;

-o‘z mehnat faoliyatiga innovatsion va kreativ yondashish, yaratuvchanlik, intellektual, madaniy, ma’naviy potensialni rivojlantirish kabi kompetensiyalarni shakllantirish metodologiyasini yaratish.

Maxsus fanlarni o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan asosiy omillardan biri-bu o‘quvchilarning bilim egallahsga bo‘lgan faolligini oshirishdir. Chunki, o‘quvchining faolligi bu uning bilim va ko‘nikmalarni egallah jarayonda o‘rganilayotgan o‘quv materiallarini o‘zlashtirish, o‘z fikr-mulohazalarini bayon etish va uning to‘g‘riligini himoya qilish, amaliy jihatdan baholash, o‘rganilayotgan mavzuga manbalarni muntazam ravishda ko‘rgazmali targ‘ib etish kabilar yuqori samara beradi. Faollik tufayli

shakllantiriladigan bilim, ko‘nikma va malakalar o‘quvchining “shaxsiy mulki”ga ko‘chadi va bu bilimlarni istagan paytda ishga solish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bundan tashqari talabalar mustaqil shug‘ullanish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu esa ularning ma’ruza va amaliy darslarga tayyorgarlik ko‘rish imkoniyatini ta’minladi. Buning oqibatida talabalarni har doim o‘tilgan mavzu bo‘yicha o‘qituvchilar bilan savol-javob qilishga harakat qilayotganliklari ko‘rindi [6].

Demak, maxsus fanlarni o‘qitish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarning bilim olish va o‘rganish faoliyatini faollashtirish, o‘quv jarayonini oqilona, to‘g‘ri tashkil qilish, o‘qitishni zamonaviy metodlari va xorij tajribalaridan foydalanish kabilar dars samaradorligini oshiribgina qolmasdan, ularning intellektual salohiyatini va erkin fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Buning uchun o‘qituvchi o‘quvchilarning bilim olish va o‘rganish faolligini oshirishda mashg‘ulot o‘tkazishning turli shakllari va metodlarini ishlab chiqishi maqsadga muvofiqdir. ”Kaskad” o‘qitish metodi o‘quv mashg‘ulotlarida qo‘llashni tavsiya qildik. ”Kaskad”-italyancha “cascade”-“tushish” degan ma’noni anglatadi. Maxsus fanlarni o‘qitishda mahsulot yoki inshootning tayyorlanish texnologik jarayonlarini teskari ketma-ketlikda qo‘yish orqali o‘quvchilarni kreativlikka va intellektuallikka yo‘naltirishga xizmat qiladi.

Bunda, u quyidagi ko‘rinishda olib boriladi Bino fasadini pardozlashda qanday materiallardan foydalanadi? kabi savol natijasida mavjud muammo to‘g‘risida umumiylasavvur olish imkonini beruvchi savol yechimini aniqlaydi. Bunda asosiy maqsad o‘quvchilarning aniq va ijodiy fikrlash qobiliyatini faollashtirishdan iborat.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Yuqoridagi mulohazalar asosida quyidagi takliflarni tavsiya etishni maqsadga muvofiq deb bilamiz:

1. Professional ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan aksariyat kadrlarning ilmiy-pedagogik salohiyati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni o‘zlashtirishi bugungi davr talabiga javob bermasligi o‘z navbatida, rivojlangan mamlakatlarning nufuzli ta’lim muassasalari bilan yaqindan hamkorlik o‘rnatish, bo‘lajak quruvchi mutaxassislarini tayyorlashda o‘quv dasturlarida me’morchilik madaniyati xususiyatlari (bezak san’ati, kompozitsiya, konstruksiya va tektonika)ni singdirish orqali ularda qurilish loyihalarini tashhislash, rejalashtirish va sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash ko‘nikmalarini shakllantirishda xalqaro tajribaning ilg‘or usul va yo‘nalishlarini tatbiq etish kabilarni amalga oshirishni talab etish zarurligi ko‘rsatildi.

2. Professional ta’lim muassasalari ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning quruvchi kasbiy kompetensiyalari (ijodkorlik, dizeynerlik, me’morchilik, badiiy-obrazlilik, intellektuallik, axborotlilik va izlanuvchanlik)ni rivojlantirish omillari va ularning o‘zaro aloqadorligini o‘rganish asosida maxsus fanlarni o‘qitishni samarali tashkil etish orqali o‘quvchilarning aqliy zakovatini, texnologik bilimdonligini oshirish yo‘llari ishlab chiqish.

3. Ish beruvchilarning ehtiyojlari va takliflaridan hamda ilg‘or xorijiy tajribadan kelib chiqib, shuningdek, iqtisodiyotning real sektoridagi tarkibiy o‘zgarishlarni hisobga

olib kasb-hunar kollejlarida o‘rtalagi bo‘g‘inning mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan mutaxassislarini tayyorlashning o‘quv rejalarini va dasturlari ishlab chiqilishini tashkil etish. O‘quvchilarning quruvchi kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish-ning texnologiyalashtirilgan ta’lim muhitini loyihamiyyatini tizimli yondashuvlar asosida tashkil etish va interfaol ta’lim texnologiyalari (“Kaskad”, “Zinama-zina” va “Kouching”)ni qo‘llash katta ahamiyat kasb etadi.

4. Qurilish kasb-hunar kollejlari o‘quv jarayonida nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, erkin fikrlaydigan, kasbiy hamda hayotiy muammolarini mustaqil hal qila oladigan shaxsni rivojlantirishda maxsus fanlarni o‘qitish orqali o‘quvchilarda quruvchi kasbiy kompetensiyalarining shakllanganlik darajalarini (yuqori, o‘rtalagi va quyi)ni baholash mezonlari (motivatsion, faoliyatli va kreativlik) ishlab chiqish.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentabrdagi PF-5812-son Farmoni.
2. Murtazayev E.M. O‘qitishning didaktik vositalari. Kasb-hunar ta’limi jurnalı. Toshkent. №2 2012, -23-24 b.
3. Murtazaev E.M. Characteristics and Essence of Teaching Special Education in Vocational Colleges. Eastern European Scientific Journal. (Ausgabe 4-2016) www.Auris-Verlag.de,-113-118 p.
4. Murtazayev E.M. Bo‘lajak kichik mutaxassislar shaxsini shakllantirish. O‘zMU xabarlari jurnalı. Toshkent. -№1/4, 2016, - 189-191 b.
5. Olimov Q.T., Ashurova S.Y. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. -T.,2007.-87 b.
6. Fayziev, M. (2020). Methods of teaching the "operators" section in the teaching of pascal programming language on the basis of a logical scheme of concepts. [Journal of Critical Review, 2056-2060. http://www.jcreview.com/fulltext/197-1596870648.pdf?1597229253](http://www.jcreview.com/fulltext/197-1596870648.pdf?1597229253)